

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.11517546>

## SPAZMOFILIYA PATOGENEZI VA KLINIKADA KO'P UCHRAYDIGAN SIMPTOMLAR

**Po'lotov Sherali Shuxrat o'g'li**

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti talabasi

@ sheraly\_polotov

### ANNOTATSIYA

*Maqolada erta yoshdagи bolalar uchun xos bo'lgan kasallik - spazmofiliya xaqida fikr yuritiladi. Spazmofiliya vujudga kelish mexanizmi, alkaloz va elektrolitlarning nomuvofiqlik muxitida gipokalsemiya rivojlanishi yoritilgan va ko'p uchraydigan simptomlarga aloxida yondashilgan.*

**Kalit so'zlar.** Spazmofiliya, alkaloz, elektrolit, simptomlar.

### ABSTRACT

*The article discusses spasmophilia, a disease typical for children of early age. The mechanism of spasmophilia, the development of hypocalcemia in the environment of alkalosis and electrolyte imbalance is highlighted, and the most common symptoms are discussed separately.*

**Key words.** Spasmophilia, alkinesis, electrolyte, symptoms.

### KIRISH

**Spazmofiliya** - (yun. Spasmos tortishish va philia – moyillik), talvasa - Qonda kalsiy miqdorining kamayishi natijasida paydo bo'lib, vaqtida talvasa xuriji bilan kechadigan kasallik. Odatda, 2 yoshgacha bo'lgan bolalarda, ayniqsa bahorda ko'proq kuzatiladi.

Bolani yaxshi parvarish qilmaslik, no'to'g'ri emizish, toza havoda kam Olib yurish uning rivojlanishiga sabab bo'ladi. Kasallikning yashirin va Ochiq shakli bor. Yashirin shakli bola nervining o'ta qo'zg'aluvchanligi bilan xarakterlanadi. Raxit zo'rayganda ochiq shaklga o'tadi, bunda xar xil muskullarda tortishish va tirishish ro'y beradi. Ko'pincha bola chinqirib yig'laganda tovush yorig'i torayib, muskullar tortishib qoladi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METADOLOGIYA

Spazmofiliya raxit bilan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan kasallikdir. Bu asosan organizmga vit d ning tushishini o‘zgarishi natijasida vujudga keladi. Ya’ni alkaloz va elektrolitlarning nomuvofiqlik muxitida gipokalsemiya rivojlanishi sababli, yana qonda vitamin d ning aktiv metaboliti miqdorining ortib ketishi sababli rivojlanadi. Vit d ning aktiv shaklini ko‘payishi qalqon oldi bezlar faoliyatini susaytiradi. Ichaklarda calsiy va fosfor tuzlarining so‘rilishini kuchaytiradi. Ularni va aminokislotalarni buyrak naychalarida reabsorbsiyasini kuchaytiradi. Buning natijasida qonning ishqoriy zaxirasi ortadi va alkaloz rivojlanadi, avvalgi gipofosfatemiya birdaniga giperfosfatemiyaga almashinadi.

Calsiy juda tez suylarda yi’ila boshlaydi, qonda uning miqdori kamayadi. Gipokalsemiya rivojlanishiga asosiy sabab, qonda ionlashgan calsiy fraksiyasining kamayishi xisoblanadi. Bunda ionlashgan calsiyning bu miqdorida neyromushak va neyronlararo sinapslarda qo‘zg‘alish chegarasi sussayadi va bir vaqtning o‘zida calsiyning biogen antagonistini ya’ni kaliy darajasi ko‘payadi. Talvasani vujudga kelishida magniy, natriy, xloridlarning kamayishi,

B gruppasi vitaminlarining xam yetishmovchiligi sabab bo‘ladi.

### ***Ko‘p uchraydigan simptomlar quyudagilar;***

Yashirin shakli; **xvoste** *simptom*- fossa caninaga bolg‘acha bilan urulganda Og‘iz burun ko‘zning ichki burchagi mushaklari tortilishi kuzatiladi.

**Lyust simptom**- kichik bolder suyagining bosh qismidan pastga urulganda Oyoq kaftining bukulishi va uning tashqariga aylanishi.

**Trusso simptom**- jgut yordamida yelka soxasidan bir necha daqiqa siqilishi Qo‘llarni akusher qo‘li ko‘rinishiga olib keladi.

**Maslov simtom** - nina sanchilganda nafas olish va chiqarishda mushaklar spazmi tufayli nafas bir necha soniya to‘xtaydi. Ochiq shakli; **laringospazm**- ovoz boyqlamarining o‘tkir torayishi, xuruj shovqinli nafas chiqarish bilan tugaydi.

**Karpopedal spazm** - oyoq, qo‘l, kaft va panjalarining mushaklarini og‘riqli spazmi, trizm, tetanik yuz.

**Eklampsiya** – es xushni yo‘qolishi bilan kechuvchi tarqalgan, umumlashgan talvasa xurujidir. Yuz mushaklarining og‘iz va ko‘z soxasida tortilishidan boshlanib, tezda oyoq qo‘llarga tarqaladi. Xuruj davomiyligi bir necha daqiqadan bir necha soatgacha kuzatiladi.

## NATIJALAR

Biz spazmofiliya kasalligini to‘la tashxislash va to‘g‘ri davolash uchun quyudagi , qondagi ko‘rsatkichlarga aloxida e’tibor berishimiz kerak. Norma;

Vit d	1ME	0.025 mkg
Ca	11	2.2 mmol
Xlor	11	98 – 107 mmol
Mg	11	0.8 - 1.05 mmol
Na	11	136 - 145 mmol

## MUHOKAMA

Spazmofiliya bugungi kunda erta yoshdagi bolalar orasida ko‘p uchraydigan kasallik xisoblanadi. Kasallikning muhim tomoni raxit bilan difdiagnostika qilishda. Raxitda suyaklarda ca yetishmasa, spazmofiliyada esa aksincha qonda gipokalsemiya yuzaga keladi. Kasallik patogenezini to‘liq o‘rganish, kasallikni davolashdan ko‘ra ko‘proq profilaktikaga e’tibor berish muhimdir. Shu sababli onajonlarimiz bolalariga e’tiborsiz bo‘lmasdan shifokor; pediatr ko‘rigidan vaqtida o‘tmoqliklari zarur. Umumiy kloniko tonik talvasalarda , laringospazm va nafas to‘xtashi, es-xushni yo‘qotish bilan birga kelsa, tezda birinchi yordam chora tadbirlarini qo‘llash maqsadga muvofiqidir.

Zero, sog‘lom avlod – sog‘lom kelajak.

## XULOSA

Erta yoshdagi bolalarda spazmofiliya kasalligini erta aniqlash, tog‘ri diagnostik tekshiruvlarni va davolash taktikasini ishlab chiqish. Kasallik sabab yuzaga keladigan simptomlarni bolalarda obyektiv ko‘rikda asoslash, boshqa kasallikklardan dif diagnostika qilish. Patogenezida asosan vitamin d ning organizmga tushishining buzulishi qondagi kalsiyning suyaklarda ko‘p miqdorda to‘planishi, elektrolit va ion balansining buzulishi kabilar muhim o‘rin tutadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

“Fakultativ pediatrya”, mualliflar; Muratxodjayeva Aqida Valiyevna  
 Pirnazarova Gulchexra Zumradovna  
 Xakimova Umida Rixsiboyevna  
 Ikromova Dildora To‘lqunovna

“Большая медицинская энциклопедия “ Бадалян Л. О . Голубева Е. Л.